

TURKISTONDA JADIDCHILIK HARAKATI HAMDA ULARNING FAOLIYATI

Fozilov Mirashraf Azamatovich

Buxoro Davlat universiteti Tarix va yuridik fakulteti

Siyosatshunoslik yo'nalishi 2-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15556593>

Annotatsiya. ushbu maqolada Turkistondagi jadidchilik harakatining vujudga kelishi va uning namoyondalari, ularning faoliyati tadqiq etilgan. Jadidlarning Turkiston hayotiga ta'siri, Turkistondagi yangi usul maktablarining tashkil etilishi va ulardagi o'quv qo'llanmalar, Turkiston jadidlarining g'oya va maqsadlari, o'ziga xos xususiyatlari haqida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: taraqqiyparvar, aktual, ziyoli, milliy ma'daniyat, ma'rifatparvar, zamonaviy demokratiya.

Jadidchilik harakati dastlab XIX asrning 80-yillarida Qrimda Ismoilbek Gaspirali boshchiligida vujudga kelgan aktual harakatlardan biri hisoblanadi. Jadidchilik harakati namoyondalari o'zlarini taraqqiyparvarlar yoki marifatparvarlar deb atashgan keyinchalik esa "Jadidlar" nomi ostida faoliyat ko'rsatishgan. Jadidchilik harakati o'z davrining eng ilg'or taraqqiyparvar kuchlari va ziyolilar qatlamini tashkil etgan. Jadidchilik harakati namoyondalari eng avvalo mahalliy aholining umumjahon taraqqiyotidan va zamon ruhidan orqada qolayotganligini his etib, jamiyatni isloh qilish zaruratini tushunib yetishgan. Jadidlar zamon ruhiga mos jamiyat qurish va mahalliy aholining savodxonligini oshirish bilan bir qatorda yoshlarni chet ellarga yuborib ularni jahon andozalaridan va tajribalaridan xabardor qilishga intilganlar. Jadidlar xalqni ma'naviy qoloqlik botqog'idan va savodsizlik girdobidan xalos qilishga intilib kelishgan. Jadidchilik harakatining shakllanish va tannazulga yuz tutish bosqichlari bo'lib, ularni shartli ravishda to'rt bosqichga bo'lish mumkin.

XX asr boshlariga kelib Turkiston o'lkasining Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva, Fargo'na vodiysi hududlarida o'nlab yangi usuldagi jadid maktablari ochila boshladi. Jadidlar yangi usul maktablarida yoshlarni bilimli, saviyali va ma'rifatli qilib tarbiyalab, yosh avlodni Turkistonda davlat asoslarini yaratish uchun milliy davlatchilik g'oyalarini ilgari surib, da'vat etib kelishgan. XX asr boshlarida Turkiston o'lkasida jadid ziyolilarining butun bir ustuni ya'ni avlodi shakllandi. Jadidlar Turkiston o'lkasida ma'naviy-ma'rifiy va savodxonlikni oshirish, milliy madaniyat taraqqiyoti borasida ulkan hissalarini qo'shdilar. Bu davrda jadidchilik harakatiga o'z hissasini qo'shgan namoyondalar vujudga keldi. Bular Toshkentda Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayev. Samarqandda Mahmudxo'ja Behbudiy, Said Ahmad Siddiqiy Ajziy, Abduqodir Shakuriy. Buxoroda Sadriddin Ayniy, Abdurauf Fitrat, Fayzulla Xo'jayev, Usmonxo'ja. Xivada Bobo'xun Salimov, Polvonniyoz Hoji Yusupov, Xudoybergan Devonov. Farg'ona vodiysida Obidjon Mahmudov, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Is'hoqxon To'ra Ibrat, Abdulhamid Cho'lpon kabi va boshqa jadidchilik harakatining faol namoyondalari edilar. Ular Turkiston o'lkasining haqqoniy vatanparvar va ma'rifatparvar rahnamolari hisoblanadi.

Turkiston jadidlarining yak dil bo'lib ularni birlashtirish yo'lida o'z hissasini qo'shgan "O'rta Osiyo jadidlar otasi" deb tan olingan Mahmudxo'ja Behbudiyning xizmatlari juda beqiyos hisoblanadi. Mahmudxo'ja Behbudiy (1875-1919) 1875-yilning 19-yanvarida Samardqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog'ida tug'ilgan. Uning otasi islom huquqshunosligi bo'yicha yirik mutaxassis bo'lib bu borada kitoblar turli xil risolalar yaratgan. Bu esa Behbudiyning tarbiyasida

chuqur ta'sir ko'rsatmay qo'ymagan. Behbudiy dastlab Samarqand, so'ngra Buxoro madrasalarida tahsil oladi. U dastlab imom-xatib, qozi, keyinchalik muftiy darajasiga ko'tariladi. Mahmudxo'ja Behbudiy O'rta Osiyodagi jadidchilik harakatining asoschisi hamda uning yuksalishi va taraqqiy etilishida o'zining ulkan hissasini qo'shgan jadidlar yo'lboshchisi hisoblanadi. Behbudiy Turkistondagi ma'rifatparvarlik ilhomchisi hamda uning rivojlanishida va taraqqiy etishida o'z hissasini qo'shgan jadidchilik namoyondalaridan biri hisoblanadi. Behbudiyning “Padarkush”, “O'qimagan bolaning holi” dramasi mashhur hisoblanadi. Shu bilan birgalikda Mahmudxo'ja Behbudiyning tashabbusi bilan o'z otasi sharafiga bag'ishlab Samarqandda “Behbudiya” nomli kutubxonasi tashkil etilgan. Behbudiy jadidchilik harakatining O'rta Osiyo bo'ylab yoyilishida xizmatlari beqiyos hisoblanadi.

Jadidchilik harakatining yana bir yo'lboshchilaridan biri ilm-ma'rifat yo'lida islohotchilik tarafdori, Turkiston o'lkasining ozodligi yo'lida kurashgan faol namoyondasi hisoblanmish Munavvarqori Abdurashidxonovning ham o'rni beqiyos hisoblanadi. Munavvarqori Abdurashidxonov (1878-1931) 1878-yilda Toshkentning Shayhontohur dahasining Darxon mahallasida dindor ziyoli oilada tavvalud topadi. Munavvarqori dastlab mahalla maktabida ta'lim-tarbiya oladi so'ngra Toshkentdagi Yunusxon madrasasida keyinchalik Buxoro madrasalarida tahsil oladi. 1904-yildan boshlab ijtimoiy-siyosiy, ma'daniy-ma'rifiy harakatlarda faol qatnasha boshladi. Munavvarqori Turkistondagi yangi usul maktablari ochilishining tashabbuskori hamda amaliyotchisi hisoblanadi. U gazeta va jurnallar asoschisi hamda muhariri va jadid teatrlarining targ'ibotchisi hisoblanadi. Munavvarqori yangi usul maktablari uchun “Adibi avval” “Adibi Soniy” “Yer yuzi” kabi darsliklarni yaratadi va ularni jadid maktablarida qo'llay boshlaydi.

Bu davrning yana bir ko'zga ko'ringan ma'daniy-ma'rifiy sohada hissasini qo'shib, o'zining Turkiston o'lkasidagi ezgu ishlari va izchil faoliyat ko'rsatgan jadidchilik namoyondasi hisoblanmish Abdulla Avloniydir. Abdulla Avloniy (1878-1934) - iste'dodli shoir, dramaturg, pedagog, jurnalist, o'zbek madaniyati va adabiyotining asoschilaridan biri hisoblanadi. Abdulla Avloniy 1878-yilning 12-iyulida Toshkentning Mergancha mahallasida kosib oilasida tavvalud topadi. U maktab va madrasada ta'lim tarbiya olib o'z zamonasining yetuk ilm-marifatli, chuqur bilim sohibiga aylandi. Avloniy XX asr boshida jadidchilik harakatiga qo'shildi. Toshkentdagi jadidlarning faol ishtirokchilaridan biri sifatida tanildi.

Abdulla Avloniy Turkiston o'lkasida ta'lim, matbuot, teatr sohalarining taraqqiy etilishida ulkan hissasini qo'shdi va shu bilan bir qatorda 1907-yilda “Shuhrat” gazetasiga hamda 1913-yilda Toshkentda “Turon teatr truppasi” tashkil etiladi Avloniy ushbu “Turon teart truppasi” ning badiiy rahbari bo'ladi. Avloniy yangi usul maktabini ham tashkil qiladi va yangi usul maktabi uchun “Birinch Muallim” “Ikkinchi Muallim” “Turkiy guliston yoxud axloq” darsliklarini yaratadi. Turkiston o'lkasida Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashixonov, va Abdulla Avloniylar xayriya jamg'armalari va kitob do'konlari ham tashkil etishadi. Ular bir kun kelib bu ezgu ishlarning samarali bo'lishiga ishonishardi va umid bog'lashgandi.

O'z zamonasining yana bir ko'zga ko'ringan ilm ma'rifat rahnamosi jadidchilik harakati namoyondasi Is'hoqxon To'ra Ibrat hisoblanadi. Is'hoqxon To'ra Ibrat (1862-1937) 1862-yilda Namangan yaqinidagi To'raqo'rg'on qishlog'ida tug'ilgan. Dastlab boshlang'ich ta'lim-tarbiyani eski maktabda hamda onasidan oladi. Keyinchalik Qo'qonga borib 1878-1886 yillari Muhammad Siddiq Tunqator madrasasida tahsil oladi. Ibrat 1886-yilda o'z qishlog'i To'raqo'rg'onga qaytib keladi va aholi orasida ilm ma'rifat tarqatish orqali o'z faoliyatini boshlaydi. Ibrat yangi maktabga asos soldi va u boshqa maktablardan o'qitish tizimi bilan ajralib turardi. Uning maktabi uzoq faoliyat yuritmaydi Ibrat Chet el mamlakatlari ma'daniyati va

ularning hayoti bilan yaqindan tanishishni istagan. Ibrat Sharq mamlakatlari bo‘ylab sayohat qiladi. Ibrat ko‘p yillik muhojirlikdan so‘ng qaytib keladi. Ibrat olti tilni o‘z ichiga olgan “Lug‘ati sitta alsina” (olti tilli lug‘at) asarini yozadi. Asar 1901-yili Toshkent bosmaxonasida chop etiladi. Ibrat ilm ma‘rifat tarqatish borasida o‘zining ulkan hissasini qo‘shdi. Ibrat “Turkiston gazetasi” “Sadoi Turkiston” “Sadoi Farg‘ona” gazetalari orqali o‘z faoliyatini yoritib borgan. U millatni uyg‘otishdek ulkan maqsadni o‘z oldiga qo‘ygani tufayli “ Millatchi” sifatida Ibrat 1937-yilda qatag‘on qurboniga aylandi.

Xiva, Buxoro, Samarqand, Toshkent, Vodiy hududlarida hur fikrli va taraqqiyparvar kishilarning ayrim guruhlari tomonidan ochilgan madaniy-ma‘rifiy yo‘nalishdagi jamiyat va uyushmalardan jadidchilik harakati shakllandi. Turkiston jadidchilik harakatining namoyondalari haqiqiy ma‘rifatparvar va ziyoli kishilar edilar. Ular Turkiston xalqini ilmi, ziyoli qilish, xalqmizni o‘rta asr feodal tartiblaridan qolgan asoratlarini yo‘qotish bo‘yicha o‘z sa‘y-harakatlarini amalga oshirganlar. Milliy ziyolilar g‘oya maqsadlari o‘z davrida amalga oshmay qolgan bo‘lsada, ularning o‘z davrida amalga oshirishga qaratilgan g‘oya maqsadlari hozirgi kunga kelib milliy davlatchilik tizimimizni zamonaviy demokratik davlat qilib yaratish uchun asosiy poydevor vazifasi bo‘lib xizmat qilmoqda.

“Shu nuqtayi nazardan qaraganda, taraqqiyparvar ajdodlarimizning ilg‘or g‘oya va qarashlarini tadqiq etish va tizimlashtirish, Turkiston jadidlarining milliy davlatchilik rivojidadagi o‘rni va ta‘sirini o‘rganish, XX asrning birinchi choragida ular tomonidan barpo etilgan davlat tuzilmalarining qonunchilik bazasini tahlil qilish, dunyoviy, huquqiy va demokratik jamiyat qurishga qaratilgan faoliyatiga tarixiy baho berish, Yangi O‘zbekiston va Uchinchi Renessansni bunyod etishda ushbu merosning mustahkam poydevori bo‘lib xizmat qilib kelmoqda”

Sh.Mirziyoyev

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustakillik va tarakkiyot uchun kurash. (Turkiston va Buxoro jadidchiligi tarixiga yangi chizgilar) Davriy to‘plam. N° 1 Toshkent "Universitet" 1999. 9-B.
2. M.Matniyozov. “Xorazm tarixi” I jild. Urganch. “Xorazm” 1997. 374-B.
3. O‘zbekiston tarixi (xix asrning ikkinchi yarmi - xx asr boshlari) Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati toshkent – 2019. 117-6.